


ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



*(2021- yil yanvar-iyun oylari
uchun dastlabki ma'lumot)*

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **1 314,3** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **49,3** mln. AQSh dollariga yoki **3,6** % ga pasaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)

		2020- yil	2021- yil	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Tashqi savdo aylanmasi		1 363,5	1 314,3	96,4	x
Eksport		234,8	405,5	172,7	100,0
	tovarlar	233,0	402,9	172,9	99,4
	xizmatlar	1,8	2,6	143,4	0,6
Import		1 128,7	908,8	80,5	100,0
	tovarlar	1064,2	855,0	80,3	94,1
	xizmatlar	64,5	53,8	83,4	5,9
	Saldo	-893,9	-503,3	x	x




Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **405,5** mln. AQSh dollariga (**72,7** % ga o'sdi) va import hajmi **908,8** mln. AQSh dollariga (**19,5** % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida – **503,3** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

ANDIJON VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)




Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalaridagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Turkmaniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda XXR, Turkiya, Xindiston, Ukraina, Polsha, Eron Islom Respublikasi va Moldova Respublikasi davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA 5 TA YIRIK FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-iyun)



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan beshta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qozog'iston (**162,8** mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (**109,7** mln. AQSh dollari), Ukraina (**3,8** mln. AQSh dollari), Moldova Respublikasi (**2,0** mln. AQSh dollari) va Ozarbayjon (**1,0** mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 15 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Andijon viloyati jahonning **64** ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasi (**40,6** %), Xitoy Xalq Respublikasida (**14,6** %), Qozog'istonda (**13,0** %), Qirg'iz Respublikasi (**10,9** %) va Rossiya Federatsiyasida (**7,7** %) qayd etilgan.



ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Koreya Respublikasi	691,7	752,2	533,0
	<i>Eksport</i>	0,5	0,2	0,2
	<i>Import</i>	691,2	752,0	532,8
	Xitoy Xalq Respublikasi	141,9	144,2	192,0
	<i>Eksport</i>	65,0	30,1	46,0
	<i>Import</i>	76,9	114,1	146,0
	Qozog'iston	63,2	65,9	171,2
	<i>Eksport</i>	53,3	59,0	167,0
	<i>Import</i>	9,9	6,9	4,2
	Qirg'iz Respublikasi	117,2	93,9	143,1
	<i>Eksport</i>	102,3	86,4	126,4
	<i>Import</i>	14,9	7,5	16,7
	Rossiya Federatsiyasi	111,4	145,7	100,8
	<i>Eksport</i>	32,7	35,0	33,1
	<i>Import</i>	78,7	110,7	67,7
	Turkiya	23,8	34,9	42,9
	<i>Eksport</i>	6,8	5,0	12,4
	<i>Import</i>	17,0	29,9	30,5
	AQSh	34,1	7,9	30,1
	<i>Eksport</i>	0,2	0,1	0,2
	<i>Import</i>	34,0	7,8	29,9
	Tailand	3,0	28,4	10,1
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	3,0	28,4	10,1
	Xindiston	5,5	6,0	8,8
	<i>Eksport</i>	-	0,1	0,2
	<i>Import</i>	5,5	5,9	8,6
	Italiya	8,3	6,4	7,1
	<i>Eksport</i>	0,0	0,5	1,9
	<i>Import</i>	8,3	5,9	5,2



ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



	Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
	Braziliya	6,1	10,8	7,0
	<i>Eksport</i>	0,1	-	-
	<i>Import</i>	6,0	10,8	7,0
	Ukraina	5,1	5,6	6,8
	<i>Eksport</i>	3,5	4,7	5,3
	<i>Import</i>	1,6	0,9	1,5
	Germaniya	10,0	7,2	6,5
	<i>Eksport</i>	0,2	0,1	0,4
	<i>Import</i>	9,8	7,1	6,1
	Polsha	2,5	4,3	5,9
	<i>Eksport</i>	0,2	0,3	0,8
	<i>Import</i>	2,3	4,0	5,1
	Chexiya	7,1	11,3	5,3
	<i>Eksport</i>	0,0	0,1	0,1
	<i>Import</i>	7,1	11,2	5,2
	Eron Islom Respublikasi	3,9	1,5	4,4
	<i>Eksport</i>	2,0	0,3	0,2
	<i>Import</i>	1,9	1,2	4,2
	Slovakiya	1,6	3,6	3,5
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	1,6	3,6	3,5
	Ozarbayjon	2,5	7,0	2,6
	<i>Eksport</i>	1,1	6,5	1,8
	<i>Import</i>	1,4	0,5	0,8
	Fransiya	1,0	0,6	2,5
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	1,0	0,6	2,5
	Moldova Respublikasi	1,4	1,2	2,4
	<i>Eksport</i>	1,4	1,2	2,2
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,2



ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-iyun 2021- yil) *



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	1 314,3	96,4
Andijon sh.	165,1	82,8
Xonobod sh. tumanlar :	33,4	91,2
Oltinko'l	19,0	110,9
Andijon	41,7	144,7
Baliqchi	3,5	68,5
Bo'ston	11,5	123,4
Buloqboshi	8,1	120,1
Jalaquduq	18,6	155,3
Izboskan	18,7	2,3 b.
Ulug'nor	12,9	175,7
Qo'rg'ontepa	20,5	74,5
Asaka	849,3	92,9
Marhamat	16,5	2,1 b.
Shahrixon	31,5	198,4
Paxtaobod	8,1	61,1
Xo'jabod	54,6	102,5

**Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari**

Asaka – 849,3

Andijon sh. – 165,1

Xo'jabod – 54,6

**Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari**

Paxtaobod – 8,1

Buloqboshi – 8,1

Baliqchi – 3,5

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka **64,6** % ulush bilan **849,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Baliqchi **0,3** % ulush bilan **3,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.





Andijon viloyati tashqi savdo aylanmasining uchdan bir qismi MDH davlatlariga to'g'ri keladi va bu ko'rsatkich so'nggi yillarda biroz o'zgardi.

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlari natijasida, 2021-yilning yanvar-iyun oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **32,9 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **9,2 %** ga ko'paygan.

ANDIJON VILOYATIINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 2020- yilga nisbatan **15,2 %** ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **67,1 %** ni tashkil etdi.



ANDIJON VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



1992-yil 4- yanvarda O'zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi)ga a'zo bo'ldi. Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-iyun holatiga **431,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport – **337,9** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import – **93,9** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Qozog'iston (**39,6** %), Qirg'iz Respublikasi (**33,1** %), Rossiya Federatsiyasi (**23,3** %), Ukraina (**1,6** %), Ozarbajjon (**0,6** %) va Moldova Respublikasi (**0,6** %) davlatlari bilan qayd etildi.



ANDIJON VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-iyun)



Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning eksportyorlari soni **328** tani tashkil etib, ular tomonidan **405,5** mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2020 - yilning mos davriga nisbatan **72,7 %** ga o'sdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,4 %** ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob – uskunolari (**43,0 %**), turli xil tayyor mahsulotlar (**25,8 %**), sanoat tovarlari (**24,8 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**4,3 %**), nooziq-ovqat xomashyo (**1,2 %**), kimyoviy vositalar (**0,2 %**) hamda mineral yoqilg'i yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**0,1 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



ANDIJON VILOYATI XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-iyun, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami eksport	234,8	405,5	84,3	172,7	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	19,3	17,4	29,9	90,1	8,2	4,3
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,1	3,0 b	73,8	0,1	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	19,1	5,1	72,2	26,4	8,1	1,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,001	0,02	20,2	38,4 b.	-	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,3	0,0002	5,9 b	0,1	0,1	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,2	0,7	185,8	61,3	0,5	0,2
Sanoat tovarlari	53,5	100,6	65,8	188,1	22,8	24,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	74,7	174,3	132,9	2,3 b.	31,8	43,0
Turli xil tayyor buyumlar	64,7	104,7	137,3	161,7	27,6	25,8
Xizmatlar	1,8	2,6	107,6	143,4	0,8	0,6



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	16 048,4	89,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	718,4	160,1
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	196,5	188,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	180,0	106,1
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	118,2	73,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	3 257,3	125,3
Moy olinadiga uruglar va mevalar	1 157,0	4,4 b
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	606,4	3,7
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'g'itlar uchun xom- ashyo va mineral xom- ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaxo toshlardan tashqari)	24,3	4,0 b.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	20,8	38,4 b.
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,2	0,1
Qayta ishlangan hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	18,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	220,0	129,1
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	159,6	92,8
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	142,8	153,7
Noorganik kimyo moddalari	89,5	136,3



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun)





XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	94 480,8	193,5
Metalldan tayyorlangan buyumlar	3 505,5	108,3
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1 268,1	120,0
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar	583,4	10,1 b.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	165 458,1	2,6 b
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	7 597,5	79,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	942,0	2,7 b
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	140,9	3,6 b
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	98 215,0	178,0
Poyabzal	3 516,0	54,9
Har xil tayyor buyumlar	1 705,9	70,5
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar	652,9	152,0

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyun mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi ko'paydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2019-yilning yanvar-iyundagi **70,6 %** dan 2021-yilning yanvar-iyunida **83,3 %** ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **29,4 %** dan **16,7 %** ga kamaydi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI
(2021- yil yanvar-iyun, % da)

2021- yilning yanvar-iyun oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qozog'iston (eksport umumiy hajmining **41,2 %**), Qirg'iz Respublikasi (**31,2 %**), Xitoy Xalq Respublikasi (**11,3 %**), Rossiya Federatsiyasi (**8,2 %**), Turkiya (**3,1**), Ukraina (**1,3 %**) va Moldova Respublikasi (**0,6 %**) davlatlari saqlanib qolmoqda hamda ularning jami eksportdagi ulushi **96,9 %** ni tashkil etmoqda.



ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Qozog'iston	59,0	167,0	110,7	2,8 b	2	1
Qirg'iz Respublikasi	86,4	126,4	84,5	146,3	1	2
Xitoy Xalq Respublikasi	30,1	46,0	46,4	152,6	4	3
Rossiya Federatsiyasi	35,0	33,1	107,1	94,5	3	4
Turkiya	5,0	12,5	74,3	2,5 b	6	5
Ukraina	4,8	5,2	138,5	110,3	7	6
Moldova Respublikasi	1,2	2,3	84,2	193,0	10	7
Italiya	0,5	1,9	9,3 b	411,2	12	8
Ozarbayjon	6,5	1,8	6,2 b	28,1	5	9
Afg'oniston	0,8	1,7	21,1	2,2 b	11	10
Pokiston	0,0	1,7	0,7	226,3 b	33	11
Belarus Respublikasi	1,3	0,8	100,4	64,9	9	12
Polsha	0,3	0,8	161,4	2,4 b	15	13
Tojikiston	1,3	0,7	149,6	51,4	8	14
Turkmaniston	0,0	0,6	21,1	30,4 b	29	15
Litva	0,3	0,4	2,5 b	169,7	17	16
Malayziya	-	0,4	-	-	-	17
Latviya	0,4	0,4	48,5	101,4	14	18
Germaniya	0,1	0,4	45,0	4,0 b	25	19
Ruminiya	0,1	0,2	109,0	187,7	22	20

ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyun)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	405,5	172,7
Andijon sh.	45,3	174,1
Xonobod sh.	20,2	190,0
<i>tumanlar :</i>		
Oltinko'l	11,0	83,8
Andijon	18,9	142,7
Baliqchi	1,6	33,9
Bo'ston	10,3	142,5
Buloqboshi	4,6	95,8
Jalaquduq	14,3	149,6
Izboskan	15,3	2,1 b.
Ulug'nor	5,6	172,4
Qo'rg'ontepa	11,8	98,2
Asaka	180,4	2,3 b.
Marhamat	8,4	134,5
Shahrixon	14,0	168,2
Paxtaobod	5,7	73,9
Xo'jaobod	37,3	187,1

Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari

Asaka – 180,4

Andijon sh. – 45,3

Xo'jaobod – 37,3

Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari

Ulug'nor – 5,6

Buloqboshi – 4,6

Baliqchi – 1,6

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **44,5 %** ulush bilan **180,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat eksporti tarkibida eng quyi ulushni Baliqchi tumani **0,4 %** ulush bilan **1,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Viloyatdagi meva-sabzavot sektori shahar va tumanlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmogda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **17,6** mln. AQSh dollari qiymatli **38,8** ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **0,8** mln. AQSh dollarida kamayish kuzatilib, **4,5** % ga pasaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **11,4** mln. AQSh dollariga teng **33,3** ming tonna sabzavot, shuningdek, **3,4** mln. AQSh dollari qiymatidagi **2,8** ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyun)



Meva va
rezavorlar

2 778,6 -
tonna
3 359,0-
ming
AQSh
dollar



Uzum

345,0-
tonna
606,7-
ming
AQSh
dollar



Qovun va
tarvuz

1087,3-
tonna
598,8-
ming
AQSh
dollar



Yer
yong'oq

802,6 -
tonna
937,6 -
ming AQSh
dollar



Sabza-
votlar

33 338,4 -
tonna
11 446,6 -
ming
AQSh
dollar



Qalampir

415,7 -
tonna
695,7 -
ming
AQSh
dollar

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Latviya, Turkmaniston, Qozog'iston hamda Belarus Respublikasi davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **4,4** % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-iyun)



Davlatlar	tonna	ming AQSh dollari	ulushi, % da *
 Qirg'iz Respublikasi	27 538,2	11 184,1	69,7
 Rossiya Federatsiyasi	8 925,7	4 361,5	27,2
 Germaniya	80,3	169,9	1,1
 Latviya	271,9	120,6	0,7
 Turkmaniston	426,2	61,0	0,4
 Qozog'iston	76,5	38,0	0,2
 Belarus Respublikasi	90,8	37,3	0,2
 Ukraina	127,7	30,7	0,2
 Armaniston	22,0	23,6	0,1
 AQSH	20,9	11,4	0,1
 Xitoy Xalq Respublikasi	25,0	9,3	0,1
 Koreya Respublikasi	0,3	1,0	0,0



* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 69,7 % i), bu Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan 2,6 baravar ko'pdir.



TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xom-ashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda **193,1** ming. AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **47,6** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **83,9** % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**50,8** %), paxtadan yigirilgan ip (**30,6** %) asosiy ulushni egallagan Yil boshidan **205** turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **20** ta davlatiga eksport qilindi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, ming. AQSh dollari)



		2019-yil	2020-yil	2021-yil
Tovarlar nomi		121 926,9	105 012,1	193 075,3
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	40 105,2	54 068,1	98 097,2
	Paxtadan yigirilgan ip	72 438,2	35 875,3	59 172,3
	Naqshli mato	1 021,1	7 538,4	21 915,6
	Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	633,7	1 237,5	4 999,7
	Paxta mahsulotlari	2 854,1	1 062,8	3 798,6
	Paxtadan gazlamalar	485,8	1 713,7	3 239,5
	Ipak va ipak mahsulotlari	4 188,5	3 326,4	949,4
	Gilamlar	1,1	0,2	223,0
	Boshqalar	199,2	189,9	680,0

DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari)



		2019- yil	2020- yil	2021- yil
	Qirg'iz Respublikasi	25,7	43,2	98,5
	Xitoy Xalq Respublikasi	64,0	30,1	45,7
	Rossiya Federatsiyasi	21,0	19,7	21,7
	Turkiya	1,3	4,7	10,2
	Qozog'iston	4,3	2,0	5,1
	Ukraina	1,2	1,4	2,6
	Moldova Respublikasi	1,4	1,2	2,3
	Italiya	0,1	0,5	1,9
	Pokiiston	-	-	1,6
	Ozərbayjon	0,4	0,3	1,2
	Polsha	-	0,3	0,8
	Belarus Respublikasi	0,4	0,4	0,5
	Ruminiya	0,1	0,1	0,2
	Eron	1,5	0,4	0,2
	Xindiston	-	0,1	0,2
	Boshqa davlatlar	0,5	0,6	0,4

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg'iz Respublikasi (**98,5** mln. AQSh dollari – **51,0** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**45,7** mln. AQSh dollari – **23,7** %), Rossiya Federatsiyasi (**21,7** mln. AQSh dollari – **11,2** %) va Turkiya (**10,2** mln. AQSh dollari – **5,3** %) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Moliyaviy xizmatlar **34,7 %**



Transport xizmatlari **29,5 %**



Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish boshqa joyda tafsiflanmagan **25,9 %**



Safarlar (turizm) **9,9 %**



Xizmatlar eksporti hajmi **2,6** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **0,6 %** ini tashkil etib, 2020 - yilga nisbatan **43,4 %** ga o'sganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy moliyaviy xizmatlar (**34,7 %**), transport xizmatlar (**29,5 %**), ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish boshqa joyda tafsiflanmagan (**25,9 %**) hamda safarlar (turizm) (**9,9 %**) hissasiga to'g'ri kelgan.




ANDIJON VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-iyun)



2021 - yilning yanvar-iyun oylarida import hajmi **908,8** mln. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **80,5** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob - uskunalari (**61,0** %), sanoat tovarlari (**19,1** %), turli xil tayyor buyumlar (**5,9** %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**5,4** %) hisobiga to'g'ri keldi.

XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-iyunida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **220,0** mln. AQSh dollariga kamaydi va **908,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **53,8** mln. AQSh dollariga yetdi.



ANDIJON VILOYATI XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (yanvar-iyun, yillar kesimida)



XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Jami import	1 128,8	908,8	110,8	80,5	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	6,9	9,6	61,4	139,7	0,6	1,0
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	33,6	24,7	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8,8	8,8	122,1	99,7	0,8	1,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,4	5,4	80,1	123,7	0,4	0,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,5	0,5	2,3 b	32,3	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	50,5	48,8	89,9	96,6	4,5	5,4
Sanoat tovarlari	223,7	173,9	113,9	77,7	19,8	19,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	703,7	554,2	116,3	78,8	62,3	61,0
Turli xil tayyor buyumlar	64,8	53,8	115,4	83,1	5,8	5,9
Xizmatlar	64,5	53,8	80,7	83,4	5,7	5,9



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun)



XSST bo'limi nomi	Mung. AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar	3 964,7	2,8 b
Sabzavotlar va mevalar	1 535,2	2,5 b
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 497,8	60,7
Kofe , choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	969,4	166,7
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	2,3	24,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	2 438,5	65,9
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	1 903,5	155,9
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 502,6	75,7
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	1 091,1	47,9 b
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Ko'mir, koks va briketlar	3 888,1	136,9
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash metallar	1 539,0	99,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	442,4	29,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan	47,8	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	21 900,6	105,4
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	8 675,7	91,9
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	7 112,2	101,5
Organik kimyo moddalari	3 481,4	70,9

XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-iyun)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	55 210,6	59,3
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan tasniflanmagan	43 784,3	84,6
Metaldan tayyorlangan buyumlar	36 041,9	81,6
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	18 551,5	104,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalari		
Avtomobillar	391 548,4	76,1
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	56 247,9	86,6
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	50 068,3	76,4
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	23 486,6	84,1
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	17 544,0	70,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	17 322,2	85,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	15 251,8	106,0
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2 239,1	57,7



Umumiy tovarlar importi o'tgan yilga nisbatan kamayishiga qaramay ayrim tovar guruhlarida o'sish kuzatildi. Masalan, tirik hayvonlar – **3 964,7** ming. AQSh dollari (o'sish – **2,8** b.), tabiiy kauchuk –**1 903,5** ming. AQSh dollari (o'sish – **155,9** %.), moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar – **1 091,1** ming. AQSh dollari (o'sish – **47,9** b.).



MDH mamlakatlaridan import ulushi 2020- yilning shu davriga nisbatan **0,1 %** ga kamaygani kuzatildi. 2019- yilning shu davriga nisbatan **0,4 %** ga o'sish qayd etildi va ularning tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021- yil yanvar-iyun natijalariga ko'ra **10,3 %** ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-iyun, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bo'yicha Andijon viloyatida **58** davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, AQSh, Qirg'iz Respublikasi va Tailand) jami importning **91,8 %** ulushini tashkil qildi, bu **908,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2021- yil yanvar-iyun, % da)



ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-iyun, yillar kesimida)



Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020	2021	2020	2021	2020	2021
Koreya Respublikasi	752,0	532,8	108,8	70,8	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	114,1	146,0	148,4	127,9	2	2
Rossiya Federatsiyasi	110,7	67,7	140,6	61,2	3	3
Turkiya	29,9	30,5	175,6	101,9	4	4
AQSh	7,8	30,0	22,9	3,8 b	8	5
Qirg'iz Respublikasi	7,5	16,6	50,3	2,2 b	9	6
Tailand	28,4	10,1	9,6 b	35,5	5	7
Hindiston	5,9	8,7	107,8	146,7	12	8
Braziliya	10,8	7,0	179,6	65,1	7	9
Germaniya	7,1	6,1	73,0	86,0	10	10
Chexiya Respublikasi	11,2	5,2	159,3	46,7	6	11
Italiya	5,9	5,1	71,0	87,3	13	12
Polsha	4,0	5,1	172,0	128,8	15	13
Eron (Islom Respublikasi)	1,2	4,3	60,0	3,6 b	20	14
Qozogiston	6,9	4,2	69,7	61,4	11	15
Slovakiya	3,6	3,5	2,3 b	96,8	16	16
Fransiya	0,6	2,5	57,6	4,4 b	28	17
Yaponiya	0,2	2,1	21,9	8,6 b	37	18
Meksika	4,0	1,9	123,7	46,3	14	19
Ispaniya	2,1	1,8	2,8 b	85,2	18	20

ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2021- yil yanvar-iyun)



	Mln. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
Andijon viloyati	908,8	80,5
Andijon sh.	119,8	69,1
Xonobod sh.	13,3	51,0
tumanlar:		
Oltinko'l	8,0	200,6
Andijon	22,8	146,4
Baliqchi	1,9	578,4
Bo'ston	1,2	56,3
Buloqboshi	3,5	180,3
Jalaquduq	4,3	177,8
Izboskan	3,5	377,1
Ulug'nor	7,3	178,3
Qo'rg'ontepa	8,8	56,3
Asaka	668,8	80,2
Marhamat	8,1	548,2
Shahrixon	17,5	231,7
Paxtaobod	2,4	43,5
Xo'jaobod	17,3	51,9

**Eng yuqori hajm,
mln. AQSh dollari**

Asaka – 668,8

Andijon sh. – 119,8

Andijon – 22,8

**Eng quyi hajm,
mln. AQSh dollari**

Paxtaobod – 2,4

Baliqchi – 1,9

Bo'ston – 1,2

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **73,6 %** ulush bilan **668,8** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyat importi tarkibida eng quyi ulushni Bo'ston tumani **1,2 %** ulush bilan **0,1** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2021- yil yanvar-iyun, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-iyun oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **53,8** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **5,9** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **12,5** % ga kamaygan. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushni intellektual mulkdan foydalanganlik bilan bog'liq xizmatlar (**45,0** %) boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**41,4** %) telekommunikatsiya, kom-pyuter va axborot xizmatlari (**11,6** %) va transport xizmatlari (**1,4** %) ga tegishli bo'ldi.



Intellektual mulkdan foydalanganlik bilan bog'liq xizmatlar

45,0

Boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar

41,4

Telekommunikatsiya, kom-pyuter va axborot xizmatlari

11,6

Transport xizmatlari

1,4



Pandemiya paytida kiritilgan karantin cheklavlari xizmat ko'rsatish sohasiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Xususan, yaqin va uzoq xorijiy mamlakatlar tomonidan xalqaro transport qatnovi tranzitiga qo'yilgan cheklavlarning natijasida transport xizmatlari importi **87,7** % ga kamayib, **0,8** million AQSh dollarini tashkil etdi.

❖ Shu bilan birga, 2020- yilning shu davriga nisbatan barcha xizmatlar importi kamayishi kuzatilgan.




MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob - uskunalar hajmi **554,2** million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **21,2** foizga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **61,0** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalar asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021-yil yanvar-iyun)



Mashina va transport uskunalar importi hajmining kamayishiga, avtomobillar (**23,9** foizga), sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar (**23,6** foizga), elektr mashinalari, apparatlar va asboblari (**15,9** foizga), elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalar (**13,8** foizga), shuningdek, importi kamayishi bevosita ta'sir qilgan.

SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2021- yil yanvar-iyun oylarida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **173,9** million AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,3 %** ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **19,1 %** ga yetdi.

SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-iyun)



Koreya Respublikasi

60,7 mln. AQSh dollari

ulushi – 34,9 %



Xitoy Xalq

Respublikasi

41,6 mln. AQSh dollari

ulushi – 23,9 %



Rossiya Federatsiyasi

40,3 mln. AQSh dollari

ulushi – 23,2 %



Qirg'iz Respublikasi

12,6 mln. AQSh dollari

ulushi – 7,3 %



Qozog'iston

2,5 mln. AQSh dollari

ulushi – 1,4 %



Sanoat tovarlari importi asosan cho'yan va po'lat (**55,2** mln. AQSh dollari), rezina buyumlari (**43,8** mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**36,0** mln. AQSh dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**18,6** mln. AQSh dollari), ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan buyumlar (**15,2** mln. AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**

Tel.: (74) 224 82 57

